



## **QAYTA ISHLASHGA OLINGAN VA BERILGAN XOMASHYONI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

**Temirov Furqat Tursoatovich**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, “Buxgalteriya hisobi” kafedrası dotsenti, PhD.*

**E-mail:** [furqattemurok@mail.ru](mailto:furqattemurok@mail.ru)

**ORCID:** <https://orcid.org/0000-0002-6242-2781>

**DOI:** [https://doi.org/10.55439/EIT/vol13\\_iss3/672](https://doi.org/10.55439/EIT/vol13_iss3/672)

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada xo‘jalik yurituvchi subyektlarda davlat xomashyosini buxgalteriya hisobida aks ettirish, qayta ishlovchi davlat xom ashyosini sanoat asosida qayta ishlashga qabul qilib va qayta ishlashdan olingan mahsulotni kelgusida buyurtmachiga qaytarib berish bo‘yicha xo‘jalik muomalalari, va uni takomillashtirishga doir ilmiy taklif va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Tolling, davlat xom ashyo, qayta ishlash, BXMS, tovar, qo‘yilgan qiymat solig‘i.

### **IMPROVING THE ACCOUNTING OF RAW MATERIALS RECEIVED AND PROVIDED FOR PROCESSING**

#### **Abstract**

This article presents scientific suggestions and recommendations for the reflection of tolling operations in economic entities in the accounting, the acceptance of processing raw materials for processing on an industrial basis and the future return of the products obtained from processing to the customer, as well as scientific proposals and recommendations for its improvement.

**Keywords:** Tolling, davlat raw materials, processing, BXMS, commodity, value added tax.

#### **Kirish**

Dunyo miqyosida ishlab chiqarishni mehnat unumdorligini oshirish, ekologik barqarorlikni ta‘minlash talablari asosida tashkil qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Jahon amaliyotida davlat xom ashyosini qayta ishlashda tolling tushunchasi keng qo‘llaniladi.

“Tolling” so‘zi inglizcha bo‘lib, davlat xom-ashyosi, materiallarni qayta ishlash bo‘yicha xizmatlarga to‘lovni anglatadi. Dastavval bu faqat mineral xom-ashyoga taalluqli edi. Keng ma‘noda “tolling” va “tolling operatsiyalari” davlat xom-ashyoni qayta ishlash ishlab chiqarishni tashkil qilish usuli va qayta ishlangan xom-ashyodan olingan mahsulotni realizatsiya qilishning turli xil usullari va bunday mahsulot uchun hisob-kitoblarni anglatadi.

Davlat xom ashyosini qayta ishlash – jahon amaliyotida keng tarqalgan ishlab chiqarish hisoblanib, unda nomi “taqdim qilinadigan xomashyo” bo‘lib qo‘llaniladi. Taqdim etiladigan xomashyo – boshqa mamlakatga qayta ishlash va keyinchalik tayyor mahsulot ko‘rinishida mamlakatga qaytib olib kelish maqsadida olib chiqiladigan xomashyo

hisoblanadi. Keng ma’noda “tolling” va “tolling operatsiyalari” taqdim etiladigan xomashyoni qayta ishlashni tashkil etish usuli va qayta ishlangan xomashyodan mahsulot ishlab chiqarishning turli usullarini va ana shunday mahsulot uchun hisob-kitob qilishni belgilab beradi. Tolling bo’yicha operatsiyalar eksport xizmatlari sifatida tasniflanadi. Tolling bitimi – buyurtmachi bilan muayyan vaqt davomida muayyan miqdordagi xomashyoni qayta ishlash bo’yicha xizmat ko’rsatadigan korxonada o’rtasida tuziladigan bitim hisoblanadi. Qayta ishlashga olib chiqiladigan xomashyo bojxona to’lovlaridan, shu jumladan qo’shilgan qiymat solig’idan ozod etiladi, to’langan qo’shilgan qiymat solig’i esa tayyor mahsulotni eksport qilish davrida chegaradan o’tayotganda qaytarib beriladi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

“Daval xom-ashyosi” termini turli xil me’yoriy hujjatlarda ko’p uchrab turadi. Daval xom-ashyosi qiymati to’lanmasdan qabul qilinadigan materiallar va daval beruvchi bilan shartnoma bo’yicha qayta ishlashga qabul qilingan holda daval xom-ashyoni qabul qiluvchining buxgalteriyasida shartnomada kelishilgan narxlarda balansdan tashqari schyotlarda hisobga olinadigan xom-ashyo va materiallar tushuniladi.

Daval xom ashyosi tushunchasiga ilmiy adabiyotlar, davriy matbuot nashrlari hamda internet manbalarida turli xil tariflarni uchratish mumkin.

Masalan, iqtisodchi olim X.A. Ortiqovning fikriga ko’ra, ... “amaliyotda xo’jalik yurituvchi subyekt xom ashyosini yoki materiallarini unga egalik qilish huquqini saqlab qolgan holda boshqa xo’jalik yurituvchi subyektga qayta ishlashga berish muomalalari tez-tez uchrab turadi. Bu jarayonda qayta ishlashga berilgan xom ashyo rus tilida “daval’cheskoye syrye” deb nomlanadi. Albatta bu buxgalteriya hisobini yuritishda ishlatiladigan maxsus atama bo’lgani uchun rus tilida umumqabul qilingan so’zlar lug’atida deyarli uchramaydi.” [1]

L. V. Postnikovani ta’kidlashicha, tollingni maxsus bojxona nazorati ostida xom ashyodan foydalanish shakllaridan biri sifatida ko’rib chiqadi va tolling muomalalarini “turli mamlakatlarning korxonalari tashqi iqtisodiy xamkorligi sifatida belgilaydi, bunda bir korxonani xom ashyosi, yarim tayyor mahsuloti boshqa korxonaga keyingi qayta ishlash uchun beriladi va keyinchalik taqdim etilgan xom ashyodan tayyor mahsulot oladi”[2]


N. N. Parasoskaya tollingni xom ashyo va materiallarni qayta ishlash uchun uchinchi tomonga o’tkazish sifatida tavsiflaydi, bu bilan bog’liq operatsiyalarni esa xom ashyo va materiallarni qayta ishlash operatsiyalari deb belgilaydi[3].

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, ta’kidlab o’tishimiz kerakki, daval xom ashyosini qayta ishlab chiqarish va tolling iqtisodiy adabiyotlarda bir xil deb qaraladi. Buning natijasida korxonalarni xo’jalik faoliyatini tashkil qilishda buxgalteriya hisobini yuritish va soliq hisobotlarini tuzishni noto’g’ri tashkil etishga olib keladi. Bu tushunchalarning quyidagi umumiy jihatlari mavjud: ya’ni, ikki xo’jalik yurituvchi subyekt sifatida mijoz va burtmachi hisoblanadi, qayta ishlash korxonasining mulkdorligini saqlab qolish va shartnomani bajarish paytida buyurtmachiga yanuniy natija sifatida tayyor mahsulot taqdim etiladi. Bu operatsiyalar asosan muayyan turdagi ishlarni bajarish uchun xizmat qiladi.

### **Tahlil va natijalar**

Qayta ishlash operatsiyalarini shartli ravishda bir necha guruhga bo’lish mumkin: daval shartlarda aksizosti mahsulotlarni ishlab chiqish hamda qayta ishlash va ishlab chiqarish; daval shartlarda aksiz osti mineral xom-ashyoni qayta ishlash; daval shartlarda alkogol mahsulotlarni qayta ishlash va ishlab chiqarish; qishloq xo’jaligida daval xom-ashyo

bilan operatsiyalar; tashqi savdo tolling operatsiyalari va boshqa shu kabilar (qora va rangli metallurgiya, qimmatbaho metallarni qayta ishlash O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari bilan va hokazo).



**1-rasm. Daval xomashyosini qayta ishlash operatsiyasini amalga oshirish sxemasi.<sup>1</sup>**

Korxonalar qayta ishlashga olingan va berilgan xom oshyoni qayta ishlov bergandang so‘ng mahsulotni topshirishda qo‘shilgan qiymat solig‘i hisobga olinadi.

Qayta ishlashga berilgan xom-ashyo qayta ishlovchining mulkiga o‘tmaydi va daval beruvchi tomonda mulkchilik huquqi qoladi. Qayta ishlovchi tayyor mahsulot ishlab chiqarmaydi, balki mahsulot uchun xom-ashyoni qayta ishlash ishlarini bajaradi. Bunda boshqa tashkilotlar tomonidan tayyor mahsulot va tovarlarni qadoqlash, o‘rash daval shartlarda materiallarni qayta ishlash sifatida qaralmaydi. Shunday qilib, bunday holatda tovar mohiyati o‘zgarishi ro‘y bermaydi.

Ushbu xususiyatlari bilan ishlab chiqarish va mulkchilik huquqining o‘tishi tolling operatsiyalarini qonuniy (huquqiy) tartibga solish, buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish xususiyatlari kelib chiqadi.

Daval xom ashyosini qayta ishlash operatsiyalarining huquqiy tartibga solinishi

Fuqarolik kodeksiga ko‘ra daval shartlarda xom-ashyoni qayta ishlash shartnomasi mustaqil shartnoma turiga ajratilmagan. Mohiyatan, bunday shartnoma pudrat shartnomasiga ancha yaqin. Pudrat shartnomasi bo‘yicha bir taraf (pudratchi) ikkinchi taraf (buyurtmachi)ning topshirig‘iga binoan ma‘lum bir ishni bajarish va uning natijasini buyurtmachiga belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa ish natijasini qabul qilib olish va buning uchun haq to‘lash majburiyatini oladi. Agar qonun hujjatlarida yoxud taraflar kelishuvida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, ishni bajarish uchun pudratchi tavakkal qiladi.

Pudrat shartnomasi ashyoni tayyorlash yoki uni qayta ishlash (ishlov berish) yoxud boshqa ishni bajarib, natijasini buyurtmachiga berish yoki boshqacha tarzda topshirish haqida tuziladi.

Agar pudrat shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, ish pudratchining materiallari, uning kuchi va mablag‘lari hisobidan bajariladi.

**3** <sup>1</sup> Muallif tomonidan BiblioFond.ru sayti ma‘lumotlari asosida tayyorlandi.

Agar pudrat shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lsa, buyurtmachining topshirig'ini bajarish usullarini pudratchi mustaqil belgilaydi.

Pudratchi o'zi bergan materiallar va uskunalarning sifati tegishli darajada bo'lmaganligi uchun, shuningdek uchinchi shaxslar huquqlari bo'lgan materiallar va uskunalar berganligi uchun javobgar bo'ladi.[4]

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, bunday shartnomada quyidagi tartib-qoidalarni kelishib olish lozim:

- amalga oshiriladigan ishlar natijasi hisoblanuvchi qayta ishlashga taalluqli bo'lgan material qiymatliklarni berish jarayonida risklarning o'tishi;
- ishlar narxi va qayta ishlovining tejamkorlik tartibi;
- qayta ishlovchi tomonidan ishlarni bajarish jarayonida daval beruvchining huquqlari;
- sifat bo'yicha qayta ishlashga materiallarni qabul qilish tartibi;
- qayta ishlovchidan olingan materiallarni iqtisod qilmasdan sarflanganligi va olingan materiallarni saqlash mas'uliyati.

Ilgari ta'kidlanganidek, material qiymatliklarni qayta ishlashga berganida mulkdor o'zgarmaydi. Agar qayta ishlash shartnomasida qayta ishlovchining ishi to'lov daval (shartlarida) sharoitlarida olingan tolling bilan to'lanishi ko'zda tutilgan bo'lsa, unda mohiyatan biz 2 xil turdagi munosabatning guvohi bo'lamiz:

- daval xom-ashyoni qayta ishlash masalasidagi munosabat va qayta ishlash bo'yicha haq usuli masalasidagi munosabat, ya'ni barter (mavoza) munosabatlari.

Boshqa tashkilotlarga qayta ishlashga berilgan materiallar 21-sonli BXMSga ko'ra 1070-“Boshqa tomonga qayta ishlash uchun berilgan materiallar” schyotida yuritiladi. Ushbu materiallar korxonaga ichida ma'lum bir qayta ishlovdan o'tgan yoki o'tmagan bo'lishi mumkin.

1070-“Boshqa tomonga qayta ishlash uchun berilgan materiallar” schyotida boshqa korxonalarga qayta ishlashga berilgan materiallar harakati hisobga olinadi, shuningdek, ushbu qayta ishlashdan olingan buyumlar tannarxi aks ettiriladi.

Materiallarni qayta ishlash bo'yicha xarajatlar, ya'ni qayta ishlovchi korxonalarga to'lovlar qayta ishlashdan olingan buyumlarga xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlarning debetida aks ettiriladi.

#### **Daval beruvchida buxgalteriya hisobining umumiy sxemasi.**

Daval beruvchi tomonda xom-ashyoni daval shartlarida berish bo'yicha operatsiyalar hisobi quyidagi tartibda yuritiladi:

Qayta ishlovchidan qayta ishlangan materiallarni (tollingni) olish jarayonida quyidagi provodka beriladi:

D<sub>t</sub> 1070-“Boshqa tomonga qayta ishlash uchun berilgan materiallar”

K<sub>t</sub> 1010 – «Xom-ashyo va materiallar”

- daval shartlarida qayta ishlangan materiallar ishlab chiqarishga hisobdan chiqarildi:

D<sub>t</sub> 2010- Asosiy ishlab chiqarish

K<sub>t</sub> 1070-“Boshqa tomonga qayta ishlash uchun berilgan materiallar”

- qayta ishlovchiga bajarilgan ishlar uchun haq hisoblandi:

D<sub>t</sub> 2010- Asosiy ishlab chiqarish

K<sub>t</sub> 6010- Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar

Qayta ishlovchilar tomonidan bajarilgan ishlar bo'yicha QQS hisoblanadi.

D<sub>t</sub> 4410- Byudjetga soliqlar va yig'img'lar bo'yicha bo'nak to'lovlari

K<sub>t</sub> 6010- Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar

Agarda daval shartlarida xom-ashyoni qayta ishlash bo'yicha xarajatlar bilan bir qatorda tolling ishlab chiqarish bo'yicha boshqa xarajatlar qilingan bo'lsa, unda quyidagi provodka berilishi zarur.

D<sub>t</sub> 2010- Asosiy ishlab chiqarish

K<sub>t</sub> 0200- asosiy vositalarning eskirishini hisobga oluvchi schyotlar

K<sub>t</sub> 0500- nomoddiy aktivlar amortizatsiyasini hisobga oluvchi schyotlar

K<sub>t</sub> 6710- Mehnat haqi bo'yicha xodim bilan hisoblashishlar

K<sub>t</sub> 6520 Maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar 25% lik

Tayyor maxsulotlarni omborga berishda quyidagi provodka beriladi.

Tayyorlash tannarxi bo'yicha tayyor maxsulot kirim qilindi.

D<sub>t</sub> 2810- Ombordagi tayyor mahsulotlar

K<sub>t</sub> 2010- Asosiy ishlab chiqarish

### **Qayta ishlovchida buxgalteriya hisobining umumiy sxemasi**

21-BXMSga ko'ra qayta ishlashga qabul qilingan (daval xom-ashyo) buyurtmachining xom-ashyo va materiallari holati va xarajati to'g'risida axborotlarni umumlashtirish uchun balansdan tashqari qayta ishlashga olingan materiallar 003-“qayta ishlatishga olingan materiallar” balansdan tashqari schyotda yuritiladi.

Xom-ashyo va materiallarni qayta ishlash bo'yicha xarajatlar hisobi ishlab chiqarish xarajatlari schyotlarida yuritiladi.

003--“qayta ishlatishga olingan materiallar” schyotida qayta ishlashga qabul qilingan buyurtmachining xom-ashyo va materiallari shartnomalarda ko'zda tutilgan korxonalar bo'yicha hisobga olinadi.

003-“qayta ishlatishga olingan materiallar” schyoti bo'yicha analitik hisob xom-ashyo va materiallarning buyurtmalari, turlari, sortlari va joylashgan joylari bo'yicha yuritiladi.

Buxgalteriya hisobi schyoti rejasiga ko'ra asosan qayta ishlovchida hisob operatsiyalari quyidagi tartibda aks ettiriladi.

Shartnomada ko'zda tutilgan narx bo'yicha korxonada qayta ishlashga qabul qilingan daval xom ashyosi summasiga

D<sub>t</sub> 003-“ qayta ishlatishga olingan materiallar”

Daval xom ashyoni qayta ishlash xarajatlari (tannarxni kalkulyatsiya qilish) aks ettirildi.

D<sub>t</sub> 2010- Asosiy ishlab chiqarish

D<sub>t</sub> 2310- Yordamchi ishlab chiqarish

D<sub>t</sub> 2510- Umumishlabchiqarish xarajatlari

K<sub>t</sub> 0200- asosiy vositalarning eskirishini hisobga oluvchi schyotlar

K<sub>t</sub> 0500- nomoddiy aktivlar amortizatsiyasini hisobga oluvchi schyotlar

K<sub>t</sub> 1010- Xom-ashyo va materiallar

K<sub>t</sub> 6710- Mehnat haqi bo'yicha xodim bilan hisoblashishlar

K<sub>t</sub> 6520- Maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar

Taqdim etilgan to'lov talabnomaga asosan qayta ishlash xizmatlari bo'yicha tushum aks ettirildi.

D<sub>t</sub> 4010- Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar

Kt 9030- Ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatishdan daromadlar

Daval xom ashyosining qayta qayta ishlash qiymatiga nisbatan QQS hisoblandi

Dt 4010- Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar

Kt 6410- Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz

Qayta ishlash bo'yicha xizmatlar tannarxi hisobdan chiqarildi

Dt 9130- Bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarning tannarxi

Kt 2010- Asosiy ishlab chiqarish

Daval xom ashyosini qayta ishlash xizmatlari bo'yicha moliyaviy tushum summasiga

Dt 9030- Ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatishdan daromadlar

Kt 9910- Yakuniy moliyaviy natijani hisobga oluvchi schyotlar

Ko'rsatilgan xizmatlar tannarxiga

Dt 9910- Yakuniy moliyaviy natijani hisobga oluvchi schyotlar

Kt 9130- Bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarning tannarxi

Qayta ishlash shartnomasiga asosan qayta ishlash daval xom-ashyosini qaytarib berilishi

Kt 003- Qayta ishlovga qabul qilingan materiallar

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, qayta ishlovchida sotish bo'yicha aylanma summasi bo'lib tayyor maxsulotlarning to'liq qiymati emas, balki daval xom- ashyosining qayta ishlash qiymati hisoblanadi.

Shuning uchun ham qayta ishlovchi tomonidan schyot faktura tayyor maxsulotlarni jo'natish paytida faqatgina qayta ishlash qiymatiga yozib beriladi.

Agarda shartnomada qayta ishlovchiga to'lov bajarilgan ish uchun qayta ishlash mahsulot yoki davlal xom-ashyosi ya'ni tayyor maxsulot bilan to'lanishi ko'zda tutilgan bo'lsa tayyorlovchi tashkilot tomonidan buyurtmachiga beriladigan tayyor maxsulot chegirib qolinadi.

### **Xulosa**

Daval xom ashyosi harakatining nazoratini ta'minlash maqsadida “Qayta ishlashga berilgan xom ashyo bilan bog'liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi to'g'risidagi” Nizomga muvofiq “Daval xom ashyosini hisobga olish vedomosti”ni yuritish lozim. Daval xom ashyosini hisobga olish vedomosti qayta ishlovchining rahbari tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda vakolatlangan shaxslar tomonidan imzolanadi. Mazkur vedomostda daval xom ashyosining miqdor va summaviy ko'rsatkichlarining kamayishi to'g'risidagi ma'lumot, uning turlari bo'yicha tegishli qatorida “minus” belgisi bilan ko'rsatiladi.

Daval xom ashyosini qayta ishlash bo'yicha bajarilgan ishlar qiymati, texnologiya va ishlab chiqarishni tashkil etish bilan asoslangan daval xom ashyosini qayta ishlash bilan bevosita bog'liq xarajatlarni o'z ichiga olgan holda ularning ishlab chiqarish tannarxi bo'yicha tan olinadi.

Daval xom ashyosini qayta ishlash bo'yicha bajarilgan ishlarning ishlab chiqarish tannarxiga kiruvchi xarajatlar tarkibi Fzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida”gi Nizomga muvofiq aniqlanadi.

Qayta ishlovchi tomonidan amalga oshirilgan daval xom ashyosini qayta ishlashdan olingan mahsulotni buyurtmachigacha yetkazib berish xarajatlari daval xom ashyosini qayta

ishlash bo'yicha bajarilgan ishlarning ishlab chiqarish tannarxiga qo'shilmaydi, balki davr xarajatlariga olib boriladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. X.A.Ortiqov. “Soliq solish va buxgalteriya hisobi” jurnali. №12(30) 2008-yil, 8-bet.
2. Постникова Л. В. Методика отражения импортного давалческого сырья в бухгалтерском учете / Л. В. Постникова // Вестник Брянского государственного университета. 2014, № 3. S.320-326
3. Парасоская Н. Н., Панова А. С. Учета и налогообложение толлинговых операций / Н. Н. Парасоская, А. С. Ханова // Бухгалтер и закон. 2014, № 4 (172). S.7-13
4. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi 19.02.2025-y., 03/25/1031/0160-son)